

## **ODAM PAPILLOMA VIRUSI**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti  
“Chiroy estetikasi” yonalishi 3-kurs talabasi  
Egamberganova Sevinch Faxriddin qizi  
Fayziyeva Sevara Xamratovna (PhD)  
Dermatokosmetolog*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada odam papilloma virusi (OPV) haqida ma'lumot, yuqish yollarini, davolash chora-tadbirlari haqida yoritib berilgan.

**Kalit sozlar:** papilloma, saraton, immunitet, lazer, anogenital.

**Odam papilloma virusi** (OPV) – bu juda keng tarqalgan, so'gal, jinsiy a'zo kondilomalari kabi ko'rinishlarda uchraydigan virusdir. Dunyo aholisining yarmidan ko'pi OPV bilan kasallangan. Ulardan ayrim qismi shunchaki kasallikning tashuvchisi bo'lsa, boshqalarida bu virus teri toshmalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu virus bachadon bo'yni saratoniga ham olib kelishi mumkin.

**Qachon yuqishi mumkin?**

- jinsiy aloqa paytida;
- onadan bolaga tug'riq paytida;
- shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinmaganda – ustara ishlatganda yoki epilatsiya vaqtida;
- maishiy yo'l bilan – sauna, basseyn, hojatxona, vanna va sport zallarida.

OPV ning 100 dan ortiq turlari mavjud, ammo ular orasida onkogen turlarigina xafvli hisoblanadi. Yuqori xavfga ega turlari – 16 va 18-chi. OPVning onkogen turlari bilan zararlanish, ayolda aniq bachadon bo'yni saratoni rivojlanadi degani emas. 90% dan ortiq zararlanganlarda infeksiya immunitet ta'sirida yo'qolib ketadi. Ammo, uzoq vaqt davomidagi tashuvchilik bachadon bo'yni displaziysi va saratoni rivojlanishi ehtimolini oshiradi. Klinik jihatdan, OPV jinsiy a'zolarda och pushti rangli so'rg'ichsimon o'simtalarning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, OPV jinsiy a'zolarning qizarishini, yoriqlar paydo bo'lishini, qichish va qizish hislarini keltirib chiqarishi mumkin.



### **Qanday yuqadi?**

Qol yoki boyin, yuz qismida papilloma toshmasi bolgan bemor bilan quchoqlashib korishasiz, hosila mavjud teri qavatiga qolningiz tegadi. Ana shu holatda terining bir-biriga ishqalanishi sodir bolib, virus infeksiyasi yuqadi. Shu bilan birga bemor artingan sochiq, shaxsiy gigiena vositalari, foydalanish ham virus yuqishiga olib kelishi mumkin. Virus ta'sirining faollashishi immunitetga bogliq. Immun tizimi yuqori odamlarda papilloma 10-15 yildan keyin ham yuzaga chiqishi mumkin. Immun tizimi past odamlarda esa 2-3 haftalarda virus faollashishi kuzatiladi. Jinsiy a'zolarda kelib chiqqan papilloma esa jinsiy yaqinlik vaqtida er-xotindan bir-biriga yuqaveradi. Shu bois kasallik aniqlanganida juftliklarning ikkisi ham har ehtimolga qarshi tibbiy kòrikdan o'tishi tavsiya etiladi.

## Виды папиллом



### **Qaysi sohada kòproq bòladi?**

Papillomaning keng tarqalgan kòrinishi boyin sohasida uchraydi. Mayda, toshma singari xili bir qarashda xoldek korinishi mumkin lekin papilloma virus infeksiyasi bòladi. Bunda pappiloma hosilasi uchli, bir-biriga tutashgan yoki alohida kòrinishda boladi. Shu bilan birga qòl kaftining ustki qismida yassi sògallar, yuzda, kòz qovoqlari, qòllarda, tovonda ham kuzatilishi mumkin. Papillomada (agar u teri ishqalanish sohasida bòlmasa) jiddiy bezovtalik bòlmaydi. Shuning uchun ham bemor organizmidagi özgarishlarni sezmay qoladi.

### **Bittadan toshadimi yoki bir nechta?**

Immunitetga bogliq. Agar immun tizimingiz yaxshi bòlsa, virus kòpaymaydi. Öz-özidan sòrilib ketishi ham mumkin. Immunitet sust bòlganida esa hosila kattalashishi yoki yon atrofiga tarqalishi mumkin. Bòyinda yuzaga kelgan papilloma kiyim ishqalanishi orqali yuqadi. Shuning hisobiga papillomada zararlanish, tilinish yoki qonash kabilar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa virusning kòpayishi uchun muhit yaratadi. Bòyin, qòltiq osti, kòkrak sohasidagi papillomalar ham teri ishqalanishi hisobiga tez ko`payadi.

### **Davolash usullari**

Shifokor kòrigidan sòng papillomani olib tashlash uchun muolaja usullari tanlanadi. Bunda kimyoviy va ishqorli preparatlar, quyuq azotli kreodistruktur hamda elektrodlar tasirida kuydirib olib tashlash muolajalari qòllanilishi mumkin. Bugungi kunda eng samarali usullardan biri sifatida e'tirof etilayotgani esa lazerli muolaja hisoblanadi. Bunda papilloma hosilasi lazer nuri yordamida kuydiriladi. Afzalligi terishikastlanishi nisbatan kam va nojoya tasirlari yoq.

### **Davolash sxemasi**

HPV infeksiyasi ushbu neoplazmaning boshlanishi uchun eng muhim xavf omili hisoblanadi, ayollar uchun ko'krak saratonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Papillomatoz o'choqlarni olib tashlashni ham o'z ichiga oladi. Katta yoki yallig'langan

o’smalar jarrohlik yo’li bilan yo’q qilinadi. Elektrokoagulyatsiya papillomalardan xalos bo’lishning samarali usuli hisoblanadi. Jarayon maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi va deyarli og’riqsizdir (sirt og’riqsizlantirishlar qo’llaniladi). Usul xavfsizdir, u qo’llanganidan keyin chandiqlar qolmaydi. Elektrokoagulyatsiyadan so’ng po’stloqlar paydo bo’ladi, uning ustida bir muncha vaqt dog’ qoladi.



Papilloma – davosi bor va o’z vaqtida muolaja qilinishi kerak bo’lgan kasallikdir. Sog’lig’ingiz ehtiyotini qilib, yaqinlaringiz, oila a`zolaringizning ham salomatliklarini saqlagan bolasiz.

**Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. <http://medportal.ru>
2. Папиллома // Большая советская энциклопедия / А. М. Прохоров. — 3-е издание. — Большая советская энциклопедия, 1975. — Т. 19. — С. 158. — 648 с.
3. Папиллома // Краткая медицинская энциклопедия / Гл. Ред. В. И. Покровский. — 3-е издание. — «Медицинская энциклопедия», 1994. — Т. 2. — С. 373. — 544 с. — ISBN 5-8317-0086-0.
4. <https://www.nhs.uk/conditions/human-papilloma-virus-hpv/>
5. <https://vaccination-info.europa.eu/en/disease-factsheets/human-papillomavirus-hpv>